

## YANGI O‘ZBEKISTONDA OILAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUSIONAL JIHATLARI

**G‘ulomjonov Odiljon Raximjon o‘g‘li,**

*Andijon davlat universiteti*

*Huquq va ma‘naviyat asoslari kafedrası o‘qituvchisi*

**Ibroximjonova Ruxshona Baxromjon qizi,**

*Andijon davlat universiteti*

*Menejment yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda oilaviy munosabatlarni takomillashtirishning institusional jihatlari tahlil qilinadi. Oilani mustahkamlash, uning ijtimoiy, ma‘naviy va huquqiy asoslarini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar hamda tegishli tashkilotlarning faoliyati yoritiladi. Shuningdek, oilaviy qadriyatlarni saqlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, gender tengligini ta‘minlash va oilalarda sog‘lom ma‘naviy muhitni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda davlat va jamoat institutlarining o‘rni hamda ularning o‘zaro hamkorligi muhim omil sifatida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, oila, oilaviy munosabatlar, institusional rivojlanish, davlat siyosati, oilani qo‘llab-quvvatlash, mahalla, gender tengligi, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy himoya, ma‘naviy qadriyatlar, fuqarolik jamiyati institutlari.

**Аннотация.** В данной статье анализируются институциональные аспекты совершенствования семейных отношений в Новом Узбекистане. Освещаются государственная политика, нормативно-правовые акты, а также деятельность соответствующих организаций, направленные на укрепление семьи и развитие её социальных, духовно-нравственных и правовых основ. Также рассматриваются вопросы сохранения семейных ценностей, подготовки молодёжи к семейной жизни, обеспечения гендерного равенства и формирования здоровой духовно-нравственной атмосферы в семьях. В исследовании роль государственных и общественных институтов, а также их взаимное сотрудничество оцениваются как важные факторы в совершенствовании семейных отношений.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, семья, семейные отношения, институциональное развитие, государственная политика, поддержка семьи, махалля, гендерное равенство, воспитание молодёжи, социальная защита, духовно-нравственные ценности, институты гражданского общества.

**Abstract.** This article analyzes the institutional aspects of improving family relations in New Uzbekistan. State policy, regulatory legal acts, and the activities of relevant organizations aimed at strengthening the family and developing its social, spiritual, and legal foundations are covered. Issues of preserving family values, preparing young people for family life, ensuring gender equality, and forming a healthy spiritual environment in families will also be considered. The study evaluates the role of state and public institutions and their mutual cooperation as an important factor in improving family relations.

**Keywords:** New Uzbekistan, family, family relations, institutional development, state policy, family support, mahalla, gender equality, youth upbringing, social protection, spiritual values, civil society institutions.

**Kirish.** Oila serqirra va mazmuniga ko‘ra keng qamrovli institut hisoblanib, yosh avlod ta‘lim-tarbiyasida, ularni sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol toptirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida muhim o‘rin tutadi. Shu bois, oila

azaldan jamiyat ijtimoiy-ma'naviy, qolaversa iqtisodiy, ma'rifiy, ahloqiy, hattoki, siyosiy hayotida muhim ahamiyatga molik bo'lgan muqaddas maskan sifatida e'tirof etiladi.

Davlat barqarorligi va yurt tinchli uchun oilaviy munosabatlarning tinchligi, totuvligi va mustaxkamligini mustaxkamlash va uning uchun zarur barcha shart sharoitlarni yaratish o'ziga xos ko'rinishda davlat dasturi darajasiga ko'tarilgan va O'zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qaraladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Oilaviy munosabatlarni takomillashtirish masalasi ijtimoiy-falsafiy, huquqiy va pedagogik jihatdan ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlashning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasiga bag'ishlangan qarorida o'z aksini topgan bo'lib, unda oilani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan.

So'nggi yillarda oilaviy munosabatlarga zamonaviy axborot makonining ta'siri ham ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, O. G'ulomjonovning ilmiy ishlarida dezinformatsiyaning mohiyati, uning oilaviy munosabatlarga salbiy ta'siri hamda oilani axborot xurujlaridan himoya qilish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, muallif tomonidan media savodxonlikning oila mustahkamligini ta'minlashdagi o'rni asoslab berilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistonda oilaviy munosabatlarni takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayonda huquqiy, ma'naviy va institutsional mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Yangi O'zbekistonda oilaviy munosabatlarni takomillashtirishning institutsional jihatlarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, tahlil va sintez, tarixiylik hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida oilani mustahkamlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, ilmiy adabiyotlar va mavzuga oid ilmiy maqolalar o'rganildi. Shuningdek, oilaviy munosabatlarni rivojlantirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni tahlil qilinib, olingan natijalar ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirildi. Tadqiqotning metodologik asosini institutsional yondashuv hamda ijtimoiy-falsafiy tahlil tamoyillari tashkil etdi.

**Tahlillar va natijalar.** O'zbekistonda oila haqida g'amxo'rlik konstitutsiyaviy yo'l bilan amalga oshiriladi. Oilani himoya qilishning konstitutsiyaviy qoidalari deganda, davlat organlarining onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilani mustahkamlash, oila a'zolarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, oilaviy munosabatlarga

mas'uliyatsizlik bilan qarashga qarshi kurashish tushuniladi. Bu tadbirlar iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy vositalar yoramida bejariladi.

Jamiyatimizda ma'naviy hayotning rivojlanishi turli ijtimoiy institutlarning faoliyatiga, aniqrog'i, ijtimoiy va guruhiy munosabatlar madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Buni ijtimoiy munosabatlarning yangi rivojlanish bosqichi deb ko'rsatsak, xato qilmagan bo'lamiz. Buning asosida amalga oshirilgan dasturiy va manzilli ishlar aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltiradi, chunki bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligi uzluksizligi qamrovi jihatidan kengligi va ma'naviy omilni yuksaltirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy omilga asosiy e'tibor qaratilayotganligi natijasida inson ijtimoiy hayotda, jamoa va guruhda o'z iqtidorini namoyon etib, turli ijtimoiy rollarni bajarishi asnosida oilaviy munosabatlarni ham rivojlantirdi. Garchi bu oddiy holatday ko'rinsa-da, bunda har bir oila a'zosining individualligini hisobga olsak, bu masala dolzarb ijtimoiy- falsafiy mavzu sifatida ahamiyatlidir.

Inson hayoti davomida har xil vaziyatlarga tushadi va turli taassurotlar bilan hayotguzaronlik qiladi. Ammo har qanday vaziyatda, inson ma'naviy lazzatni, tom ma'nodagi hordiq chiqarishni, o'zini xotirjam his etishni faqatgina oila va uning ma'naviy muhitining ta'siridan oladi. SHu sababli bo'lsa kerak, oila institutiga "qutqaruv hikmat maskani" sifatida qarash lozim. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan oila ijtimoiy institut sifatida inson va jamiyat hayotida qay darajada muhim o'rin tutishini quyidagi holatlar bilan ko'rsatib o'tish mumkin:

– insoniyat tarixi shuni ko'rsatmoqdaki, biron bir jamiyat alohida muhim ijtimoiy buyurtmalarni bajaruvchi oilaning (turli shakllarda bo'lsa-da) ishtirokisiz amalga oshirilmagan;

– shu kunga qadar oila yagona maskan sifatida inson kamolotini ta'minlashda ishtirok etib, uning ijtimoiy-madaniy, axborot va ma'naviy yaratuvchisi sifatida tarbiyalab kelayotgan ijtimoiy institut hisoblanadi;

– biron bir institut (fond, birlashma, tashkilot va b.) qanchalik inson manfaatini himoya qilishga, ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallab tuzilmagan bo'lsin, insonning falsafiy jihatdan yolg'izligini hal etolmaydi;

oila insonning jamiyat hayotiga kirib borishini (hamkorlikda faoliyat yuritish, axborot ayirboshlash, yo'naltirish, madaniylashtirish va b.) ta'minlab, ijtimoiylashuvini ikki (ong (tafakkur, hissiyot, iroda) va faoliyat) tarzda ta'minlash uchun xizmat qiladi. Oila ijtimoiy hayot tarzini (yaqin qarindoshlik rishtalarini joriy etish, o'zaro hurmat ko'rsatish mas'uliyati, ma'naviy ehtiyojlarni qondirish) ta'minlash uchun munosabatlarning institutlashuvini ta'minlovchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Oilaning vujudga kelishiga oid turli ta'limotlar yaratilgan va hattoki ayrim bir olimlar femilistikani ta'lim amaliyotiga tatbiq etish tarafdorlaridir.

Femilistika – bu oila haqidagi majmuaviy fan bo‘lib, asosiy maqsad, oilani yaxlit tarzda o‘rganib, uning baraqaror hayotini ta‘minlash uchun barcha resurslarni yo‘naltirish hisoblanadi. Xoh teologik, xoh falsafiy, xoh tarixiy, xoh iqtisodiy, xoh huquqiy va sotsiologik bo‘lmasin, ularning asosiy nuqtasi – bahs mavzusi inson va uning faoliyati hisoblanadi. Hattoki bugungi kunda oila ijtimoiy guruh, jamoa, ma‘naviy va madaniy munosabatlarning substantsiyasi darajasida turli fanlarning ham tadqiqot ob‘ekti bo‘lib kelmoqda. Har bir fan sohasi oila institutining biron-bir jihatini yoki oila va uning a‘zolari bilan bog‘liq bo‘lgan rishtalarning o‘ziga xos jihatlarini o‘z predmeti doirasida o‘rganadi. Mazkur yondashuv oila institutining tadqiqot ob‘ekti sifatida serqirraligini ko‘rsatib, nazariy-amaliy mazmunga egaligini belgilovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Chunki oila nafaqat shaxsiy baxt va xotirjamlikni ta‘minlash uchun, balki nasl qoldirish, individning ijtimoiylashuvi va jamiyat hayoti muvozanatini ta‘minlashda ham muhim o‘rin egallaydi. Agarda oila va uning vujudga kelishi hamda rivojlanish tarixiga nazar salsak, guruhviy matriarxal, patriarxal, katta avlod vakillaridan iborat bo‘lgan oila, faqatgina er-xotin va farzandlardan iborat bo‘lgan nuklear oila singari tiplarini kuzatishimiz mumkin. Demak, oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari jamiyat hayotining tarixiy davrlar bilan aloqadorligini ta‘minlab kelgan. Aloqadorlikning zamirida ijtimoiy tajriba, an‘ana, qadriyatlar, tarixiy kechinmalar, munosabatlar tarzi va ijtimoiy mavqeni belgilovchi asoslar ifodalangan.

Oilada amal qiladigan moslashuv mexanizmi oilaning muvaffaqiyatliligini belgilaydiki, buni “moslashuv hududi” deb ko‘rsatsak, xato qilmagan bo‘lamiz. Negaki “moslashuv hududi” o‘zida oilaviy rollar taqsimoti va ularning individual bajarilishini, er-xotinlarning hissiy yaqinligini, bir-birlaridan kutishlari kabi ijtimoiy-falsafiy majmualarni o‘z ichiga qamrab oladi. N.X.Orlovaning ko‘rsatishicha “oilaning muvaffaqiyatliligi er-xotin tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarning maromiga yetkazishga bog‘liqdir. Bular quyidagilardan iborat:

- farzandli bo‘lish va ularni tarbiyalash;
- maishiy-xo‘jalik yuritish;
- ma‘naviy yuksaltirish;
- axborot bilan ta‘minlash;
- madaniy hordiq chiqarishni tashkil etish;
- psixoterapiyani amalga oshirish.

Oilaning vazifalari tushunchasi o‘rnida, boshqa bir tushunchani qo‘llab, masalaning mohiyatini yoritish jarayonini murakkablashtirish mumkin. Lekin oilaning muvaffaqiyatli tarzda amal qilishi, bevosita oilaviy vazifalarni o‘zaro aloqadorlikda er-xotin tomonidan bajarilishida namoyon bo‘lishini inobatga olish lozim. Negaki individual oilaning muvaffaqiyatli tarzda hayotguzaronlik qilishi, galdagi rivojlanish bosqichini egallashi turmush o‘rtoqlarning oilaviy vazifalar mohiyatini anglab, ularni bajarishga qodirligiga bog‘liqdir. Shu sababli yoshlarni

oilaviy vazifalarni, ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Shu o'rinda O'zbek oilasining etnomadaniy xususiyatini mujassam etuvchi ma'rifatpavar mutafakkir Abdurauf Fitratning fikricha, "muhabbat odamning ixtiyorida emas. Bizning mamlakatimizda er-xotin o'rtalarida muhabbat paydo bo'lishi uchun uylanish qoidalari kifoya qilmaydi. Lekin hozirgi vaqtda uylanish qoidasi shunday ekan, er-xotinning bir-biriga nisbatan do'stligi ishq-u muhabbat darajasiga yetmasa ham shunday iloj topish lozimki, aqlan bir-birlaridan nafrat qilmasinlar", – deya oila qurishning tavsifini bayon etgan. Bizningcha, sovchilik asosida yaratiladigan oilalar aynan A.Fitratning falsafiy tasnifiga mos tushadi.

Oila ijtimoiy institut sifatida tarbiyalovchi, maqsadga yo'naltiruvchi, safarbar etuvchi, moslashtiruvchi, hordiq chiqaruvchi, nasl qoldiruvchi, psixoterapevtik, baxtga yetaklovchi kabi vazifalarni bajaradi. Ko'rinib turibdiki, oila bajaradigan vazifalar majmuasi boshqa institutlarning vazifalari qatorida ifodalanmagan. SHu sababli bo'lsa kerakki, oila ijtimoiy falsafa, sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya kabi fan sohalarida oilaviy muloqot madaniyati, oilaviy munosabatlarda ijtimoiy yaqinlik, oilaviy rollarning transformatsiyalashuvi, oilaviy nizo va qadriyatlar kabi mavzular yo'nalishida o'rganib kelinmoqda.

Oila hayotining silliq kechishida uning a'zolari xotirjamligini ta'minlashdan nafaqat yoshlarning o'zlari, ota-onalari va yaqin qarindoshlari, balki mahalla, kasbiy jamoa, bir so'z bilan aytganda, butun jamiyat manfaatdordir. **Negaki oila ijtimoiy institut sifatida shaxsning ijtimoiy–ma'naviy jihatdan yetilishini ta'minlaydi. Bu esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:**

1. tafakkur madaniyatini egallanganligida;
2. nizoli vaziyatlarda o'zini tutish xulqini o'zlashtirganligida;
3. ma'naviy jihatdan birovni qo'llab-quvvatlay olishda;
4. hissiyot madaniyatini o'zlashtirganligida;
5. o'zgaralar kamchiligiga sabr-toqat bilan munosabatda bo'lishda;
6. o'zini nazorat qilish psixotexnikasiga ega bo'lishda.

Ko'rinib turibdiki, oila insonning ma'naviy kamol topishini ta'minlash uchun xizmat qilib, individual ma'naviyatni shakllantirish vazifasini bajaradigan maskan hisoblanadi. Shu sababli oila – bu ijtimoiy-madaniy munosabatlarni amalga oshirish maskani, milliy qadriyatlarni yaratuvchisi va davom ettiruvchisi hisoblanib, munosabatlarda beg'araz va pok sadoqatning ta'siri asosida ma'naviyat yaratiladi va oila a'zolarining namunasida jamiyatda ifodalanadi. Bu holat o'z navbatida oilaning turli jihatlarini ilmiy o'rganish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib, uni o'rganish davomida olingan natijalarni ta'lim-tarbiyani rejalashtirish va amalga oshirish uchun qo'llash tavsiya etiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda oilaviy munosabatlarni takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Oila institutini mustahkamlash, uning huquqiy, ijtimoiy va ma‘naviy asoslarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari oilaviy munosabatlarni rivojlantirishda davlat organlari, mahalla, ta‘lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, oilaviy qadriyatlarni asrash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, gender tengligini ta‘minlash va media savodxonlikni rivojlantirish oilaning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, oilani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish jamiyatning ma‘naviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adbiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. «Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустахкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарори 2018 йилнинг 27 июнь
2. Одилжон, Г. У. (2025). ДЕЗИНФОРМАЦИЯ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МОҲИАТИ. «АСТА NUUZ», 1(1.4), 76-78.
3. Гуломжонов, О. (2025). СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТИ ВОЗДЕЙСТВИЯ ДЕЗИНФОРМАЦИИ НА СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ V NOVOM UZBEKISTANE. Элита. уз-Электрон Илмий Журнал, 3(2), 20-23.
4. Одилжон, Г. У. (2025). Оила мустахкамлигини таъминлашда медиа саводхонликнинг аҳамияти. Общество и инноватсии, 6(8/С), 264-269.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934